



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
"UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK" JOIN-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web site: www.sqb.uz

TARTIB

"O'zsanoatqurilishbank" ATB

Yuridik departament

Korporativ va ichki hujjatlar

ekspertiza xizmatida

2026-yil "6" yanvar da

670-son bilan

RO'YXATGA OLINGAN



"O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish jarayonida kontragentlarni tekshirish TARTIBI

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlari, "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel) va boshqa hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida xaridlarni amalga oshirish jarayonida kontragentlarni tekshirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

kontragent – Bankning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

kontragentlarni tekshirish bo'yicha mas'ul bo'linma (keyingi o'rinlarda – mas'ul bo'linma) – Bank tizimida kontragentlar bilan ishlashda ularning ishonchligi va moliyaviy holatini tahlil qilish, shuningdek buyurtmachi bilan kontragent o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ayni bitta lotda ishtirokchilar o'rtasida bir-biri bilan afillanganlik holatini o'rganish, tahlil qilish hamda ular bilan ishlash xavflarini baholovchi mas'ul tarkibiy tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatining Bank faoliyatida xaridlar ustidan nazorat qilish guruhi;

kontragentning ta'sischi va rahbarlari – mazkur Tartib maqsadlarida kontragentning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar (kontragent rahbari, ta'sischi yoki benefitsiari);

tashabbuskor bo'linma – tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha tashabbus bilan chiqqan mas'ul tarkibiy bo'linma;

korupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

insofsiz ijrochi – Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi yoki g'olibi yoxud davlat xaridlarining ijrochisi hisoblangan O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

konfidensial ma'lumot – qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank siri, tijorat siri va shaxsga doir ma'lumotlar;

tashabbuskor – tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish yuzasidan tashabbus bilan chiqqan tarkibiy bo'linma;

shaxsiy manfaatdorlik – Bank xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Bank xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni oldini olish;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini oldini olish;

kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

3. Xarid jarayoni ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.

4. Tekshiruv ushbu Tartibning 7 va 8-bandlarida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

5. Mas'ul bo'linma Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va qo'shimcha olingan ma'lumotlarni o'rganib 3 (uch) ish kuni ichida kontragentlarni tekshirilganligini asoslovchi xulosani Xaridlarni tashkil etish xizmatiga taqdim etadi.

6. Kontragentlarni tekshiruv natijalari bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish

xizmatining xulosasini olmasdan turib shartnoma imzolash va to'lovlarini amalga oshirish taqiqlanadi, bunda ushbu Tartibning 7 va 8-bandlarida ko'rsatilgan kontragentlar mustasno.

7. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha aniqlangan kontragentlar tekshirilmaydi.

Bunda, shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish davlat xaridlari elektron tizimi operatori tomonidan amalga oshiriladi.

8. Tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmaydi:

Bank ulushi mavjud bo'lgan (ta'sischi yoki ishtirokchi sifatida) aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa yuridik shaxslar;

kommunal va boshqa shu kabi xizmatlari (elektr, gaz, issiqlik, muhandislik-texnika va suv ta'minoti, shuningdek suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashish va utilizatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), aloqa va teleradio-uzatish xizmatlari, shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

O'zbekiston Respublikasida tabiiy monopoliya subyekti sifatida e'tirof etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasida savdolar o'tkazilishi natijasida shartnomalar tuzilishi rejalashtirilgan kontragentlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida shartnomalar tuzilishi nazarda tutilgan kontragentlar;

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan hamda tegishli sohada qonunchilik hujjatlariga muvofiq faqat vakolatli organ sifatida faoliyat yurituvchi kontragentlar.

2-bob. Tekshiruv o'tkazish

9. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish, o'rnatilgan tartibda ishtirokchilar tomonidan taqdim qilingan takliflar ochilgandan so'ng (xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar) amalga oshiriladi.

10. Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan ushbu Tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, mas'ul bo'linma kontragentlar tekshiruvini amalga oshiradi.

11. Kontragentlarni tekshirish maqsadida kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili asosida va to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnomalarga oid hujjatlar Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmatiga Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan taqdim etiladi.

Tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari bo'yicha kontragentlarni tekshirishga oid (ushbu Tartibning 9-bandda belgilangan davr davomida) hujjatlarni sifatli va o'z vaqtida to'liq taqdim qilishni Xaridlarni tashkil etish xizmatining mas'ul xodimi amalga oshiradi.

12. Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan kontragentni tekshirish uchun ushbu Tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar nusxalari mas'ul bo'linmaga taqdim etiladi.

13. Kontragentni tekshirish uchun olinadigan ma'lumotlar mas'ul bo'linma tomonidan quyidagilarni baholash uchun amalga oshiriladi:

kontragent, uning ta'sisчилari va rahbarlari faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega

bo'lish;

kontragentdan olinadigan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi;

kontragentdan olinadigan hujjat va ma'lumotlarning ishonchsizligi bo'yicha belgilar yo'qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) aniqlash.

14. Kontragentlarni tekshirish doirasida mas'ul bo'linma quyidagilarni tahlil qiladi:

kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar (*ushbu Tartibning 1-ilovasida keltirilgan hujjatlarni kontragentdan olishning imkoni bo'lmaganda yoki taqdim etilgan axborot hamda hujjatlarda ishonchsizlik (soxtalashtirish) alomatlari aniqlangan taqdirda, mas'ul bo'linma kontragentni tekshirish natijalari bo'yicha tuziladigan xulosada tegishli belgi qo'yadi*);

ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar (*mas'ul bo'linma kontragentni tekshirish jarayonida barcha ochiq va rasmiy axborot manbalaridan foydalanishi mumkin*);

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnomma yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar;

Bankning ichki resurslari, shu jumladan kontragentlar tekshiruvlari reyestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar.

15. Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

16. Xorijiy kontragentlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan avval, Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan ularning huquqiy maqomi, ro'yxatdan o'tgan davlati, faoliyat turi, mulkiy va boshqaruvda ishtirok etuvchi shaxslar to'g'risida hujjatlar va ma'lumotlar mas'ul bo'linmaga taqdim etiladi.

Ushbu hujjatlar va ma'lumotlar kontragentning rasmiy vakilidan, davlat reyestrlaridan yoki xalqaro tan olingan axborot manbalaridan (shu jumladan, FATF, Egmont Group, World-Check va boshqa ochiq manbalardan) tashabbuskor bo'linma tomonidan olinadi.

17. Mazkur Tartibning 16-bandida nazarda tutilgan tartibda xorijiy kontragent bo'yicha hujjatlar hamda ma'lumotlarni olishning obyektiv sabablarga ko'ra olishning imkoni bo'lmagan hollarda, mas'ul bo'linma tomonidan xorijiy kontragent bo'yicha tekshiruvni to'liq amalga oshirish imkoniyati mavjud emasligi to'g'risida asoslantirilgan xulosa rasmiylashtiriladi va Xaridlarni tashkil etish xizmatiga taqdim etiladi.

3-bob. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

18. Kontragentlarning yuridik maqomi, soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati har bir alohida holatda mas'ul bo'linmaning xarid komissiyasi bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo'lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

19. Mas'ul bo'linma foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi hamda 20–24-bandlarda ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan tekshiruv

natijalari to'g'risidagi xulosada ko'rsatilgan ma'lumotlarning bor-yo'qligini belgilaydi.

20. Kontragentlarni tekshirish doirasida mas'ul bo'linma quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestrda kontragentning mavjudligi;

kontragentning yuridik va amaldagi manzili;

kontragentning ta'sischilari va rahbarlari F.I.O.;

kontragentning asosiy faoliyati turining xarid predmetiga muvofiqligi;

kontragentning korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarining mavjudligi.

21. Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborini tekshirish doirasida mas'ul bo'linma quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

ochiq manbalarda kontragent ta'sischilari va rahbarlarini bog'lovchi firibgarlik, soxtalashtirish, korrupsiya va boshqa noqonuniy harakatlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

kontragent ta'sischilari va rahbarlariga nisbatan ularning obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ochiq axborot resurslari, sud hujjatlari, xalqaro axborot bazalari ha

mda boshqa qonuniy ochiq manbalarda aniqlanmaganligi.

22. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14 - moddasiga muvofiq, davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

23. Mas'ul bo'linma manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligini aniqlashni quyidagi mezonlar asosida amalga oshiradi:

kontragentning ta'sischilari va rahbarlaridan biri xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi ta'sischisi, rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlash jarayonida tashabbuskor bo'linma, Bank xodimlari hamda ularning yaqin qarindoshlari kontragentning ta'sischilari, ishtirokchilari yoki aksiyadorlari sifatida ishtirok etmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor bo'linma yoki Bankning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka ega bo'lmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor bo'linma yoki Bankning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

kontragent va xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

24. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash doirasida Bank xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reyestrda kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash

orqali amalga oshiriladi.

4-bob. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish

25. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha mas'ul bo'linma tomonidan ushbu Tartibning 2-ilovasida keltirilgan shaklda xulosa tuzadi. Kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosaga mas'ul bo'linma tomonidan o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin.

26. Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda mas'ul bo'linma ushbu holatni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida Xaridlarni tashkil etish xizmati orqali xarid komissiyasiga kiritiladi. Agar manfaatlar to'qnashuvi alomatlari Bank xodimlarida aniqlangan bo'lsa, bu haqda Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamentiga yozma ravishda xabardor qilinadi.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada aks ettiriladi.

27. Xavf-xatar indikatorlari aniqlanganda mas'ul bo'linma kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirish uchun kontragent bilan ishlash bo'yicha tavsiyalarni taklif qiladi (masalan, shartnomaning avans to'lovlariga taqiqni kiritish) va ularni kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada aks ettiradi.

28. Xaridlarni tashkil etish xizmatining mas'ul xodimi tomonidan kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa xarid komissiyasi raisiga taqdim etiladi. Xarid komissiyasi xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to'g'risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi va bu haqda xarid komissiyasi yoki kontragent bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

29. Kontragent va Bank xodimi o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu xarid jarayoni Bankda manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi ichki hujjatlar asosan tartibga solinishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish imkoni bo'lmagan taqdirda kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

30. Kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to'g'risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo'yicha kelishish va to'lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo'shib qo'yiladi.

31. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosani mas'ul bo'linma Xaridlarni tashkil etish xizmatiga EHA orqali taqdim etib boradi va ushbu Tartibning 3-ilovasiga muvofiq kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

32. Mas'ul bo'linma kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosalarni o'z vaqtida ba sifatli to'ldirilgan holda taqdim etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Xulosalaraning asl nusxasi EHA tizimida va mas'ul bo'linmada saqlanadi.

33. Kontragentlarni tekshirish bilan bog'liq barcha hujjatlar va axborotlar konfidensial ma'lumot hisoblanadi hamda bunday ma'lumot va axborotlarni xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi taqiqlanadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

34. Kontragentlarni tekshirish bo'yicha ma'lumot davriy tarzda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan Bank kuzatuv kengashiga va/yoki Bank Boshqaruviga kiritilib boriladi.

35. Ushbu Tartibda nazarda tutilgan qoidalarining aniq va bir xilda qo'llanilishi ustidan umumiy nazorat va doimiy monitoring Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

36. Mazkur Tartib Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

37. Mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

38. Bank xodimlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

qonunchilik hujjatlari, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qilishi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.

39. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni va bankning Odob-axloq kodeksi talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

40. Mazkur Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

41. Mazkur Tartib tasdiqlanishi munosabati bilan Bank Boshqaruvining 2023-yil 8-sentabrdagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma (ichki ro'yxat raqami 564, 2023-yil 8-sentabr) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

**Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinbosari:**



A.Ergashev

№ 73

2025 yil «18» «dekabr»

kelishuvchilar: Sh.Ismoilov, K. Abdullayev, A.Xujamuratov, J.Tilovov, D.Shamirzayev, A.Yoqubjonov, A.Kamalov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=vO11rX82&id=5a09478d-f0ac-4dc8-84d6-a2750c0149fd>

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
xaridlarni amalga oshirish jarayonida
kontragentlarni tekshirish tartibiga
1-ILOVA

**Kontragentdan tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar
RO‘YXATI**

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor
yoki jismoniy shaxs bo‘lgan kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

t/r	Hujjat nomi	Kontragent	Yangi kontragent	Joriy kontragent
1.	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi	Yuridik shaxs /YATT	Majburiy	<i>Taqdim etilmaydi</i>
2.	soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini (STIR); JShShIR ma’lumotlari	YATT/Jismoniy shaxs	Majburiy	Majburiy
3.	Ustav va boshqa ta’sis hujjatlarining nusxasi (ochiq manbalardan olinadi)	Yuridik shaxs	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
4.	Pasport/ID karta nusxasi	YATT/Jismoniy shaxs	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
5.	Litsenziya yoki sertifikat. (litsenziya yoki sertifikat talab qilinadigan faoliyat turlari uchun)	Yuridik shaxs /YATT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy
6.	Nomzodning sudlangan/sudlanmaganligi bo‘yicha ma’lumotnoma	Nomzod jismoniy shaxs	Majburiy	

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
xaridlarni amalga oshirish jarayonida
kontragentlarni tekshirish tartibiga
2 – ILOVA

Kontragentni tekshirish haqidagi xulosa

1.	Ishtirokchining ismi					
2.	STIR					
3.	Ro‘yxatga olingan sana					
4.	Yuridik manzili					
5.	Rahbarning F.I.O					
6.	Ta‘sischilarning F.I.O					
8.	Ishtirokchi tadbirkorlik subyektlarining Yagona davlat reyestrda bor	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzдорliklarning yo‘qligi	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
12.	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ishtirokchi haqida yozuvning yo‘qligi	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
15.	Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
16.	Manfaatlar to‘qnashuvi / ishtirokchining Bank tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma‘lumot yo‘qligi	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
17.	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	Manfaatlar to‘qnashuvlarini tartibga solish chora-tadbirlari tavsifi				
18.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo‘q</i>	☒	
19.	Ishtirokchining sayti	Mavjud emas/Saytning manzili: [havola], faol / faol emas				

20.	Ishtirokchi faoliyat davri (yillarda)				
21.	Ishtirokchi tekshirish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan	<i>Ha</i>	☒	<i>Yo'q</i>	☒
Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmaganlarini ko'rsating:					
22.	Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar				
	a)	[Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]			
	b)	[Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]			
	v)	[Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]			
	g)	[Hujjat / materialning qisqacha tavsifi] va b.			
	Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar	Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkinligini ko'rsating			
Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodimlar haqida ma'lumotlar					
	F.I.O.				
	Lavozimi				
	Hisobot tuzilgan sana				
	Lotning raqami				
	Imzo				

Fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha jismoniy shaxslarni tekshirish haqidagi hisobot

1.	Ishtirokchining ismi	
2.	JShShIR	
3.	Pasport/ID ma'lumotlari	
4	Oxirgi ish joyidagi ijobiy tavsiyanomasi	
5.	Nomzodning reputatsiyasi (sudlanganligi/sudlanmaganligi)	
5	Nomzodning Bank xodimlari bilan aloqadorligi	
6	Nomzodning Xarid komissiyasi bilan aloqadorligi	
7.	Ochiq axborot manbalarida nomzodni qoralovchi ma'lumotlar mavjud emasligi	

7	Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar	Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkinligini ko'rsating
8	Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodimlar haqida ma'lumotlar	
9	F.I.O.	
10	Lavozimi	
11	Hisobot tuzilgan sana	
12	Lotning raqami	
	Imzo	

[illegible]

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
xaridlarni amalga oshirish jarayonida
kontragentlarni tekshirish tartibiga
3-ILOVA

Kontragentlarni tekshirish reyestri

1	T\r
2	Tekshirish so‘ rovi olingan sana
3	Ijrochi
4	Tashabbuskor bo‘linma
5	Kontragent nomi
6	Kontragentning STIR/ JShShIR
7	Taqdim etilgan hujjatlar
8	Shartnomaviy munosabatlarini o‘rnatishning maqsadi
9	Oldingi tekshiruvlar haqida ma’lumot (sanasi, ijobiy/ salbiy xulosa / dastlabki tekshirish).
10	Aniqlangan xavflar
11	Xulosa sanasi
12	Izohlar